

YURIDIK UNIVERSITET TALABALARI MAHALLALARDA: NAZARIY BILIMDAN AMALIY MAS'ULIYAT SARI

Ergashev Abdulaziz Ilxom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

ergashevabdulaziz1402@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda ijtimoiy profilaktika tizimini kuchaytirishga qaratilgan qaror va farmonlari ijrosi doirasida yuridik universitet talabalari ishtirokining ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, talabalarning mahallalarda amaliyot o'tashi, fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatishi, huquqiy targ'ibot ishlarida qatnashishi va dual ta'lim tamoyili asosida nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishi yoritilgan. Shuningdek, mahallalarda kriminogen vaziyatni o'rganish, yoshlar va ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilish, ijtimoiy-maishiy muammolarni huquqiy yechimlar asosida hal etishda talabalar faoliyatining o'rnini ochib berilgan. Maqolada yuridik ta'lim va amaliyot integratsiyasi huquqiy davlat barpo etishning muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Mahalla, yuridik ta'lim, talabalar amaliyoti, dual ta'lim, ijtimoiy profilaktika, jinoyatchilikning oldini olish, huquqiy yordam, huquqiy targ'ibot, kriminogen vaziyat, ilm-fan va amaliyot integratsiyasi, xavfsiz muhit, huquqiy madaniyat.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mahalla instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va ijtimoiy profilaktika tizimini kuchaytirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son hamda 7-yanvardagi PQ-2-son qarorlari, shuningdek, 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjatlarda mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, "mahalla — tuman — viloyat" kesimida manzilli ishlash tizimini

joriy etish, huquqbuzarliklarning asl omillarini ilmiy asosda o'rganish va profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Ana shu jarayonda Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari va professor-o'qituvchilarining mahallalarda amaliyot o'tashi, fuqarolarga bevosita yuridik yordam ko'rsatishi va dual ta'lim asosida faoliyat yuritishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon nafaqat ta'lim sifatini oshirmoqda, balki mahallalarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jinoyatchilikni oldini olishga ham real hissa qo'shmoqda.

Mahalla – amaliyot maktabi. Mahalla bugun shunchaki fuqarolar yig'ini emas, balki ijtimoiy muammolar hal etiladigan, profilaktika choralari amalga oshiriladigan, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi muhim institutga aylandi. Prezident qarorlarida mahallalarda "Ijtimoiy profilaktika haftaligi"ni o'tkazish, kriminogen vaziyati og'ir hududlarda manzilli ishlash, ayollar va yoshlar jinoyatchiligining sabablarini chuqur o'rganish kabi vazifalar aniq belgilab berilgan. Yuridik universitet talabalari aynan mana shu jarayonlarga jalb etilmoqda. Yashnobod va Yangihayot tumanlaridagi mahallalarda o'tkazilgan uchrashuvlar, targ'ibot tadbirlari va o'rganishlar bunga yorqin misoldir. Talabalar mahalla "yettiligi" vakillari bilan birgalikda hududdagi ijtimoiy vaziyatni o'rganib, fuqarolarning murojaatlarini tahlil qilib, huquqiy maslahatlar bermoqda. Bu esa auditoriyada olingan nazariy bilimlarning real hayotdagi muammolar bilan to'qnashuvi, talabaning kelajak kasbiy faoliyatiga puxta tayyorgarlik jarayonidir.

Fuqarolarga bepul yuridik yordam: ishonch va natija. Mahallalarda o'tkazilayotgan amaliyot jarayonida talabalar tomonidan fuqarolarga bepul yuridik maslahatlar berilishi alohida e'tiborga loyiq. Ko'plab fuqarolar mehnat nizolari, aliment masalalari, meros, kredit majburiyatlari, subsidiya va ijtimoiy yordam olish tartibi bo'yicha huquqiy tushuntirishlarga muhtoj.

Talabalar professor-o'qituvchilar rahbarligida murojaatlarni o'rganib, amaldagi qonunchilik asosida aniq va asoslantirilgan javoblar bermoqda. Ayrim holatlarda masala joyida hal etilsa, boshqa holatlarda tegishli idoralarga yo'naltirish va huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishda ko'maklashilmoqda.

Bunday amaliy faoliyat ikki tomonlama foyda keltiradi:

birinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati oshadi;

ikkinchidan, talabalar real huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Jinoyatchilik profilaktikasida talabaning o'рни. Prezident qarorlarida jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, ayniqsa oila-turmush doirasidagi nizolar, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar va ayollar jinoyatchiligining sabablarini ilmiy asosda o'rganish vazifasi qo'yilgan. Bu jarayonda yuridik universitetning ilmiy salohiyati va talabalar resursidan samarali foydalanilmoqda. Masalan, voyaga yetmagan yoki sudlangan yoshlar bilan ishlashda talabalar alohida ta'lim dasturlari, huquqiy savodxonlik bo'yicha treninglar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etmoqda. "Huquq bilimdoni" olimpiadasi, startap loyihalar orqali yoshlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish tashabbuslari ham jinoyatchilik profilaktikasining muhim qismidir. Talaba bu yerda oddiy kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi. U muammoni o'rganadi, tahlil qiladi, taklif beradi va natijani ko'radi. Bu esa kelajakda mas'uliyatli prokuror, advokat, sudya yoki davlat xizmatchisi bo'lishi uchun zarur tajribani shakllantiradi.

Dual ta'lim – nazariya va amaliyot uyg'unligi. PF-232-son Farmon asosida yuridik ta'lim tizimida dual ta'lim tamoyillarini joriy etish belgilangan. Bu modelga ko'ra, talaba o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida amaliy faoliyat bilan ham shug'ullanadi.

Mahallalarga biriktirilgan talabalar:

- hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganadi;
- ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan ishlashda ishtirok etadi;
- huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etadi;
- aholi murojaatlarini monitoring qiladi.

Bu jarayon nazariy bilimni mustahkamlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Masalan, talaba Jinoyat kodeksidagi normalarni o'rganibgina qolmay, balki ularning real hayotda qanday qo'llanilishini ko'radi. Ma'muriy javobgarlik, oilaviy nizolar, mehnat munosabatlariga oid bilimlar bevosita amaliy vaziyatlarda sinovdan o'tadi.

Dual ta'limning yana bir afzalligi – mas'uliyat hissining shakllanishidir. Talaba o'z faoliyati natijasi jamiyat hayotiga ta'sir qilayotganini his etadi. Bu esa kasbiy yetuklikning muhim omilidir.

Ilm-fan va amaliyot integratsiyasi. Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan prokuratura organlari, ichki ishlar tuzilmalari va mahalla faollari uchun o'tkazilgan seminarlar ilm-fan va amaliyot integratsiyasining yorqin namunasidir. "Xavfsiz mahalla" konsepsiyasini hayotga tatbiq etish mexanizmlari, manzilli yondashuv asosida muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha berilgan tavsiyalar talabalar uchun ham katta tajriba maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Talabalar bu seminar va uchrashuvlarda ishtirok etib, nazariy yondashuvning amaliy natijalarini kuzatadi. Ilmiy tahlil – tavsiya – natija zanjiri bevosita ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Mahalladagi real muammolar – real tajriba. Mahallalarda o'tkazilayotgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning aksariyat sabablari ijtimoiy-maishiy muammolar bilan chambarchas bog'liq. Ishsizlik, oilaviy kelishmovchiliklar, huquqiy savodsizlik – bularning barchasi profilaktika choralari orqali bartaraf etilishi mumkin. Talabalar mehnat yarmarkalari, huquqiy maslahatxonalar, targ'ibot tadbirlarida faol qatnashib, fuqarolarni qonuniy yo'l bilan muammolarni hal etishga undamoqda. Ayrim hollarda oddiy huquqiy tushuntirishning o'zi nizoning oldini olishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon talaba uchun ham katta saboq: u qonun normalari ortida inson taqdiri, oila, jamiyat turganini angelaydi.

Xulosa o'rnida, Yuridik universitet talabalarining mahallalarda amaliyot o'tashi – bu oddiy o'quv jarayonining bir qismi emas. Bu – huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi amaliy qadamdir. Prezident qaror va farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda talabalarining ishtiroki yosh avlodni mas'uliyatli, tashabbuskor va professional kadrlar sifatida shakllantirmoqda.

Mahalla esa ular uchun hayotiy laboratoriya vazifasini bajarmoqda. Bu yerda qonun qog'ozda emas, amalda ishlaydi. Bu yerda huquqiy bilim inson taqdiriga ta'sir qiladi. Bu yerda talaba kelajak kasbining asl mohiyatini angelaydi.

Dual ta'lim, ijtimoiy profilaktika, bepul yuridik yordam, huquqiy targ'ibot – bularning barchasi yagona maqsadga xizmat qiladi: xavfsiz, adolatli va huquqiy jamiyat barpo etish.

Demak, bugun mahallalarda amaliyot o'tayotgan yuridik universitet talabalari – ertangi kunning qonun ustuvorligini ta'minlaydigan, jamiyat ishonchini oqlaydigan yetuk mutaxassislari sifatida shakllanmoqda. Ularning mahalladagi har bir qadami esa huquqiy davlat sari tashlangan muhim qadamdir.